

## O‘ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATINING UY-JOY SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI

**Alimova Nargiza Odilovna,**  
*falsafa fanlar doktori(PhD),*  
*Farg‘ona davlat universiteti dotsenti*

**Yo‘ldoshev Islombek Ismoiljon o‘g‘li**  
*Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistri*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada O‘zbekistonda sovet hukumatining uy-joy siyosatining huquqiy asoslari ochib berilgan bo‘lib, o‘sha davrdagi siyosat berib o‘tilgan. Bu siyosat asosida Sovet tuzimi shaharlarda yer va uy-joy tanqisligini xalq qilishga uringan va “zichlashtirish siyosati” orqali bunga erishgan.*

**Kalit so‘z va iboralar:** *Davlat rejalashtirish qo‘mitasi, O‘zbekiston uy-joy ittifoqi, ortiqchaliklar, uy-joy maydoni, Ijroiya byurosi.*

### ABSTRACT

*In this article, the legal basis of the housing policy of the Soviet government in Uzbekistan is revealed, and the policy of that time is given. Based on this policy, the Soviet system tried to publicize the shortage of land and housing and achieved this through the "policy of densification".*

**Key words and expressions:** *State Planning Committee, Housing Union of Uzbekistan, surpluses, housing area, Executive Bureau.*

**1917-1941 yillarda O‘zbekiston shaharlarida uy-joy qurilishi masalalari.** Sovet uy-joy qurilishi rivojlanishining tarixi 1924 yildan, ya’ni O‘rta Osiyoda ma’muriy hududiy chegaralanish va O‘zbekiston SSR tashkil etilgan davridan boshlangan. Uy-joy qurish rejalarini ishlab chiqishda O‘zSSR Davlat rejalashtirish

qo‘mitasi (Gosplan) bilan bir qatorda IIXK faol qatnashgan. Masalan, Davlat rejalashtirish qo‘mitasining Savdo-sanoat bo‘limi uy-joy va kommunal qurilish masalalari bo‘yicha kengashining bayonnomasiga muvofiq, IIXKga 1925-1926 yillarda O‘zSSRda, kooperativ va xususiy qurilishni hisobga olgan holda, uy-joy va kommunal qurilish rejasini Davlat rejalashtirish qo‘mitasiga taqdim qilish taklif qilingan<sup>1</sup>. IIXKda qo‘yilgan vazifani bajarishga layoqatli xodimlar yo‘qligini hisobga olib, IIXK apparatini uy-joy va kommunal qurilish sohasi mutaxassis-xodimlar bilan kuchaytirish zarur hisoblangan<sup>2</sup>.

1926-1927 yillarda O‘zbekistonda uy-joy qurilishi hajmlari 9 mln. 419 ming rublga teng miqdorda, keyingi besh yillikda, ya’ni 1926-1931 yillarda esa 67 mln. 120 ming rubl miqdorida belgilangan. 1926-1927 yillar va keyingi 1926-1931 yillar rejasida ko‘zda tutilgan qurilish O‘rta Osiyoning barcha respublikalari bo‘yicha quyidagi raqamlarda ifodalangan bo‘lishi kerak edi: 1926-1927 yillarda – 46 mln. 89 ming rubl, 1926-1931 – 247 mln. 148 ming rubl<sup>3</sup>.

Sovet hokimiyati bu raqamlarni keltirar ekan, bu turdagi qurilish O‘zbekiston SSRda eng ko‘p mablag‘ talab qilishini ta’kidlaydi, chunki bu erda uy-joy maydonining etishmasligi 1930-1931 yillarda deyarli 5 kv. metrgacha o‘sgan.

O‘zbekiston SSRning eski va yangi shaharlarida uy-joy qurilishi betartiblik bilan amalga oshirilgan va bu borada qat’iy ko‘rsatmalar bo‘lmagan. Sovet hokimiyati kooperativ uy-joy qurilishining mavjud tizimi ko‘p hollarda socialistik turmush tarzini emas, balki eski individual-alohidalik turmush shakllarini mustahkamlaydi deb hisoblagan. Davlat rejalashtirish qo‘mitasining kommunal seksiyasi bilan birgalikda uy-joy qurish besh yillik rejasini ishlab chiqqan IIXK vakillarining fikriga ko‘ra, O‘zbekiston uy-joy ittifoqi taqdim qilgan rivojlanish rejasi mazkur yo‘nalishda istalgan siljishni bermagan. Rejada mo‘ljallangan uy-joy qurilishi aksariyat hollarda mayda

---

<sup>1</sup> ЎзМА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 3494-иш, 2-варақ.

<sup>2</sup> ЎзМА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 3494-иш, 3-варақ.

<sup>3</sup> ЎзМА, Р.1-фонд, 1-рўйхат, 682-иш, 259-варақ.

qurilish bo‘lgan, ya’ni katta bo‘lmagan kam kvartirali uylar qurilgan<sup>1</sup>, bunday bir-ikki kvartirali uylar qurilishini va undagi har bir kvartirant o‘zining alohida, qo‘shnisidan to‘silgan hovliga ega bo‘lishini IXXK va Davlat rejalashtirish qo‘mitasining kommunal seksiyasi jamoaviylik elementlaridan butunlay xoli bo‘lgan mutlaq individualizm deb tushungan. O‘zSSR KP (b) MK Ijroiya byurosi uy-joy qurilishini amalga oshirayotgan “Uzjilsoyuz” va boshqa tashkilotlarga istiqbolda mayda, alohida 2-3 kvartirali va unda har bir kvartirada alohida oshxonali uylar qurishga yo‘l qo‘ymaslikni tavsiya qilgan. Shunga qaramasdan, 1929 yili O‘zbekiston uy-joy ittifoqi tomonidan 5 ta bir kvartirali uy qurilgan.

1932 yili partiya plenumlari va konferensiyalari qarorlari, mazkur sohada oldingi yillarga qaraganda ba’zi yutuqlarga erishilganilganiga qaramasdan, uy-joy qurish rejasi bajarilmagan. Masalan, 1929 yilda 77 ming kv. metr uy-joy qurilgan bo‘lsa, 1932 yilda bu ko‘rsatkich 445 ming kv. metrni tashkil qilgan, bunga hokimiyat uy-joy inqirozi bilan bog‘liq muammoni hal qilish uchun engillashtirilgan yarim barak turdagi uylarni qurishga ruxsat berganligi tufayli erishilgan. Bunda, umuman olganda esa butun sovet davrida, miqdoriy ko‘rsatkichlar ustuvorlik qilgan, hech qanday sifat yoki me’morchilikka oid “ortiqchaliklar” haqida gap ketmasdi.

Shuni hisobga olish zarurki, uy-joy qurilishining besh yillik rejaları xalq xo‘jaligini rivojlantirishning besh yillik rejasi va ishchilar sinfining o‘shishini hisobga olish asosida emas, balki shahar aholisining o‘shish ko‘rsatkichlari asosida tuzilgan bo‘lib, turar-joy maydoniga bo‘lgan ehtiyoj ushbu ma’lumotlarga tayangan holda hisoblangan.

Shuni ta’kidlash kerakki, rejaga ko‘ra, qurilish charm, oziq-ovqat, silikat, poligrafıya, to‘qimachilik, tikuvchilik va ipak sanoati ishchilari manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilishi kerak bo‘lgan. O‘zbekiston sanoatining yirik tarmoqlari bo‘lgan yog‘-moy ishlab chiqarish, paxta tozalash, metallga ishlov berish tarmoqlari ishchilari esa butunlay unutilgan edi.

---

<sup>1</sup> ЎзМА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1892-иш, 83, 115-варақлар.

Ushbu hisob-kitoblar ma'lumotlariga ko'ra, 1927 yilning 1 yanvarida kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni 4,85 kv. metr, 1928 yilning 1 yanvarida kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni 4,69 kv. metr, 1929 yilning 1 yanvarida kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni 4,47 kv. metr<sup>1</sup> teng bo'lgan, 1933 yilning 1 yanvarida kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydonini 5 kv. metrga etkazish uchun uy-joy qurish hajmlarini oshirish zarur edi, lekin uy-joy qurish bo'yicha ko'rilgan choralarga qaramasdan, kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydonining kamayish tendensiyasi kuzatiladi.

Ijtimoiylashtirilgan sektor fondida eng yaxshi sifatli va kattalikdagi turar-joy binolari jamlangan bo'lib, ular umumiy maydonga nisbatan solishtirma og'irligi bo'yicha 37,8 foizni tashkil etgan, turar joy maydonining qolgan qismi, eski shaharlar hududidagi uy xo'jaliklari hisobiga, xususiylashtirilgan shaxslarga tegishli edi.

Sovet hokimiyati O'zbekiston shaharlarini rejalashtirish ishlarini tashkil etish masalasini ko'tardi, biroq asosiy e'tibor butun mamlakatda uy-joy qurilishiga emas, balki, uy-joy qurilishida jamoaviylik (kollektivizm) tamoyillarini amalga oshirishni hisobga olgan holda, ishchilarga uy-joy qurish uchun ma'lum zonalar ajratishga qaratildi, ya'ni qurilishda ishchilar maishiy turmushini umumlashtirmaydigan, balki individual-alohidalik tendensiyalarni mustahkamlaydigan alohida individualistik ruhidagi kottedjlarni birinchi o'ringa qo'ymaslik talab qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Sovet tuzimi O'zbekiston shaharlarida uy-joy qurilishi siyosatini dolzarbligini tushungan xolda o'sha davrda ham buni davlat siyosati maqomiga yetkazgan. Bu siyosat asosida Sovet tuzimi yer va uy-joy tanqisligini xalq qilishga uringan va shaharlarda uy-joy muamosini hal qilishga erishgan.

---

<sup>1</sup> ЎзМА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1892-иш, 79-варак.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. Т.1. – М., 1967. – С.15.
2. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 5472-иш, 128-варақ
3. Б.Эшов Ўзбекистон давлатчилиги ват бошқаруви тарихи. – Тошкент, 2012. 4. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2001.